Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

# Surxon tongi

2022-yil
14-yanvar
(juma),
3-son
(17778)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan www.surxontongi.uz t.me/surxon_tongi



keng jamoatchilik vakillari tashrif buyurdi.

Tadbir ishtirokchilari harbiy orkestr musiqa sadolari ostida Motamsaro Ona haykali poyiga gulchambarlar qo‘yib, Vatanimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi yo‘lida jon fido qilgan yurtdoshlarimizni yod etdilar.

Bayram tadbirlari Navbahor ko‘chasi bo‘ylab vatanparvarlik marshi sadosi ostida ofitser va askarlarning jangavor safda yurishi hamda zirhli harbiy texnikalar harakatlanishi namoyishiga ulanib ketdi.

Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotiga qarashli harbiy va sport avtomobillari, viloyatimizdagi harbiy qismlar askar va zobitlari, harbiy texnikalar, shuningdek, Milliy gvardiya, ichki ishlar, mudofaa va favqulodda vaziyatlar boshqarmalari askar va zobitlarining yurishi keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Shundan so‘ng, harbiylarimizni kuy-qo‘shiqlar ila madh etish, bayram tantanalarini o‘ziga xos tarzda nishonlash maqsadida Termiz shahridagi San’at saroyida harbiy vatanparvarlarimiz uchun tashkil etilgan tantanali tadbirda bir guruh harbiy xizmatchilar viloyat hokimligining faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

## VATAN tug‘in baland tutar bunda HARBIYLAR

*Vatanni sevish, uni ardoqlash, kerak bo‘lsa, unga jon fido etish – har bir jonkuyar fuqaroning Ona yurt oldidagi muqaddas burchidir. Bu mas’uliyatli vazifa, avvalo, vatan himoyachisiman, deya ko‘krak kerib, harbiylik libosini bezab turuvchi mard o‘g‘lonlar yelkasiga ikki karra qadalgan.*



Aslida har birimiz bevosita vatan himoyachilarimiz, ammo chegaralarimiz daxlsizligi, yurtimiz tinchligi yo‘lida, qo‘shni davlatlar bilan hamjihatligimizda vatan posbonlarining ahamiyati yuqori turadi. Ular bor ekan, tunda xotirjam uyquga ketib, tongda kundalik turmushimizni yorug‘ yuz bilan qarshi olamiz. Biz ana shunday zabardast, fidoyi o‘g‘lonlarimizni har qachon ardoqlasak, kam aslida.

14-yanvar —Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tantanalari tashkil etilishi shuningdek, yurtimiz harbiy-siyosiy salohiyatini belgilab beruvchi harbiy paradlar o‘tkazilishi mana 30 yildirki, an’ana.

Bu kun mard yuraklar madh etiladi, fidoyilikka, jonkuyarlikka muhr qo‘yiladi. Hamma ham harbiy bo‘lavermaydi, har kim ham bu kabi sharafli kasbning etagidan tutolmaydi. Ayniqsa, Vatan himoyachilarining qadrini, qo‘shni hududlarda yuz berayotgan harbiy-siyosiy vaziyatlar ham yana bir bor anglatib qo‘ydi.

Termizda Vatan himoyachilari kuni bayram tadbirlari Motamsaro ona haykali poyiga gul qo‘yish bilan boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi va Vatan himoyachilari kuni viloyatimizda ham katta ko‘tarinkilik bilan nishonlanmoqda.

Termiz shahridagi Xotira maydoni har qachongidan gavjum bo‘ldi. Bu yerga viloyat hokimligi, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, ofitser, serjant va harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlarimiz faxriylari hamda

## “SULTON” DAN “BESH QAHRAMON” GACHA

*Qumqo‘rg‘on tumanidagi “Oltin Chigit” O‘zbekiston – Gretsiya qo‘shma korxonasida bahorgi ekish mavsumi uchun urug‘lik chigit tayyorlash boshlandi. Korxona bir yilda 5 ming tonna urug‘lik chigitni tuksizlantirib, kasalliklarga qarshi dorilash quvvatiga ega.*

Yuzdan ortiq ishchi-xodim mehnat qilayotgan korxona joriy yilgi mavsum uchun 900 tonna urug‘lik chigitni tuksizlantirib, dorilashni mo‘ljallamoqda. Mutaxassislarning fikricha, mamlakatimizda paxtachilikning klaster tizimiga o‘tilgani hosilni yetishtirishdan boshlab uni to‘liq qayta ishlashgacha bo‘lgan jarayonlarni sifatli amalga oshirib, salmoqli daromad olishni talab etmoqda.

Shunga muvofiq paxtakorlar ertapishar, kasalliklarga chidamli g‘o‘za navlarini ekishga katta qiziqish bildirayotir. Qo‘shma korxona bu yilgi mavsum uchun “Sulton”, “Besh qahramon”, “Porloq” kabi voha iqlimiga mos, kasalliklarga chidamli, serhosil va ertapishar g‘o‘za urug‘larini qayta ishlamoqda.

— Urug‘lik chigitni qayta ishlashda viloyat o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi xodimlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritamiz, — deydi “Oltin Chigit” qo‘shma korxonasi rahbari Turdiali Xo‘janazarov. — Bunda sohaning tajribali mutaxassislari zarur maslahat va tavsiyalarini berayotir. Ishchi-xodimlarimiz uchun mahorat darslari tashkil etmoqda. Uzoq yillardan buyon davom etayotgan bu hamkorlik buyurtmachilarimiz bilan har taraflama ishonchli aloqa o‘rnatishimizga xizmat qilmoqda.

G‘o‘za nozik o‘simlik. Undan yuqori tolali, mo‘l hosil yetishtirishda saralab olingan urug‘lik chigitning alohida o‘rni bor. Bu hozirgi paytda soha mutaxassislari oldida turgan muhim masalalardan biridir.

— Qo‘shma korxona o‘rta va ingichka tolali urug‘lik chigitni qayta ishlashda yetarli tajriba va zarur uskunalarga ega, — deydi Qumqo‘rg‘on tumani o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi inspektori Yo‘ldosh Jonnazarov. —Masalan, ingichka tolali urug‘lik paxtani qayta ishlashda har bir nav uchun alohida texnologik rejim belgilanadi. Texnologik jihozlarning ishi har bir ish smenasi vaqtida urug‘likning shikastlanganlik darajasiga qarab uzluksiz boshqarib turiladi. Ekish uchun tayyorlanayotgan urug‘lik chigit zarur preparatlar bilan quruq usulda qayta ishlab zararsizlantirilgach, qoplarga solinib, tegishli muhr bosiladi.

Qo‘shma korxona shu yil yana bir yangi loyihani amalga oshirib, tukli urug‘lik chigitni dorilash texnologiyasini o‘zlashtiradi. Bir ish kunida 50 tonnagacha tukli urug‘lik chigitni qayta ishlab, dorilaydigan zamonaviy sexda 20 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

**Xolmo‘min MAMATRAYIMOV,**
O‘zA



## XALQ DEPUTATLARI VILOYAT KENGASHINING QARORI

### SURXONDARYO VILOYATINING 2022-YILGI MAHALLIY BYUDJETINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

*O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 30-dekabrdagi 01/20-01-32/842-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi qaror qiladi:*

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2021-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-742-son Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Qonunga muvofiq Surxondaryo viloyati mahalliy byudjetining 2022-yil uchun daromadlari 2466,9 milliard so‘m, xarajatlari 4 453,9 milliard so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 1 989,0 milliard so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun Surxondaryo viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2023-2024-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2022-yil uchun viloyat mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022-yil uchun viloyat byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun tumanlar va shaharlar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Surxondaryo viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2022-yil uchun shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022-yil uchun viloyat byudjetidan tuman va shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’i nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022-yil uchun viloyatning viloyat byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 17,5 milliard so‘m miqdorida belgilansin.

Shahar va tumanlar byudjetlarining 2022-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Ta’kidlansinki, Surxondaryo viloyati viloyat byudjetining, shahar va tumanlar byudjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9. 2022-yil uchun viloyatning viloyat byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5 264,7 million so‘mni hamda shahar va tumanlar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Mazkur Qonun bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashlarining mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilari kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

*(Davomi 2-sahifada)*

## KADRLAR SARALANADI

***Termiz shahridagi viloyat Statistika boshqarmasi binosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat filiali tomonidan viloyatdagi tashkilot, korxona va muassasalarning kadrlar bo‘limlari mutaxassislari ishtirokida o‘quv-amaliy seminar o‘tkazildi.***



Unda agentlikning viloyat filiali rahbari Sherpo‘lat Boyqulov viloyatimizda Prezidentimizning 2019-yil 3-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ijrosi yuzasidan o‘tgan yilda amalga oshirilgan ishlar hamda yangi yilda bajarilishi rejalashtirilayotgan muhim masalalar xususida ma’ruza qildi.

Ayonki, yaqinlargacha davlat tashkilotlariga ish so‘rab murojaat qilganlar masalasini korxona rahbari yoki kadrlar bo‘limi mutaxassisi mustaqil hal qilardi. Keyingi ikki yilda qirqdan ortiq vazirlik, idoralar, qo‘mitalarning quyi tizimlaridagi vakant lavozimlarga tanlov o‘tkazish orqali mutaxassislar qabul qilinayotir. Jumladan, viloyatdagi filial ham davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlari yagona ochiq portaliga qo‘shilgan. O‘tgan yili agentlikning viloyat filiali tomonidan 1 274 ta vakant lavozim uchun ochiq tanlovlar tashkil etish bo‘yicha e’lon berildi. 918 ta vakant lavozim uchun hujjat topshirgan 9 268 nafar nomzod-dan 4 347 nafari malaka talabidan o‘tib, tanlovning test bosqichida qatnashgan. 1 241 nafar nomzod test natijalarini muvaffaqiyatli topshirib, uchinchi bosqich suhbatida ishtirok etdi. 306 nafar yangi nomzod tanlangan vakant lavozimlarga ishga qabul qilingan. Ayni damda 102 ta vakant lavozim uchun hujjatlar qabul qilinmoqda.

O‘quv-amaliy seminarda davlat organlari va tashkilotlarining kadrlar bo‘linmalari faoliyatida yo‘l qo‘yilgan xato-kamchiliklarni bartaraf etish va 2022-yilda munosib kadrlarni tanlash, kadrlar zaxirasini shakllantirish, lavozimga tavsiya etish bo‘yicha qilinishi lozim bo‘lgan vazifalar muhokama qilindi. Seminar yakunida o‘tgan yili o‘z burchini sidqidildan ado etib, muvaffaqiyatlarga erishgan davlat organlari va tashkilotlarining kadrlar bo‘limi mutaxassislarining bir necha nafariga agentlikning Surxondaryo viloyati filiali rahbariyati tashakkurnomasi va esdalik sovg‘alari topshirildi.

*"... Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va viloyat hokimligi zimmasiga yuklatilsin".*

2022-yil 14-yanvar, 3-son
www.surxontongi.uz

# XALQ DEPUTATLARI VILOYAT KENGASHINING QARORI

*(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)*

2022-yilda quyidagi soliqlar:

a) shahar va tumanlar byudjetiga:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan qat'iy belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

aylanmadan olinadigan soliq;

Davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushadigan tushumlar;

mobil aloqa xizmatlari hamda alkogol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari aksiz solig'i, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq to'liq hajmda taqsimlansin;

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga:

foyda solig'i (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari);

elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

boshqa tushumlar to'liq hajmda o'tkazilishi;

d) viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o'rtasida:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq bundan mustasno);

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig'imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'imlardan, g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig'imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);

davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar taqsimlanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

11. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari F.Mamanov, Moliya bosh boshqarmasi B.Xursanov, Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tuman (shahar) hokimliklari va mas'ul boshqarma hamda tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni, birinchi navbatda, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon hamda kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjet prognoz ko'rsatkichlarini o'z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

12. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) davlat soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib;

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarning o'z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda soliqlarning to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

bunda, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsin.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish vazifasi viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov)ga yuklatilsin.

13. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (M.Abduraxmanov) 2022-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to'lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to'liq hisoblanishini ta'minlasin.

14. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasining janubiy mintaqaviy inspeksiyasi (Sh.Toshtemirov) hamda shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo'yicha xatlovlar o'tkazish;

xatlov natijalari bo'yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan "marksheydrlik" xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo'yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (A.Xudayorov) viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha choralarni ko'rsin.

16. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi (F.Tairov), tuman va shahar hokimliklari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko'rsatsin.

17. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (S.Xaliqov) Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (Y.Namozov) bilan birgalikda:

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo'yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko'ra viloyatda mavjud bo'sh turgan davlat mulki obyektlari ro'yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro'yxatga asosan bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo'ljallangan bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini "e-ijro auksion" maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish choralarini ko'rsin.

18. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Xaliqov), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov), viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022-yilning 1-iyuliga qadar 2021-yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlarni 2022-yilning 1-sentyabridan kechiktirmay, tegishli darajadagi byudjetlarga o'tkazilishini ta'minlasin.

19. Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (E.Eshkeldiyev) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to'liq xatlovdan o'tkazgan holda ushbu tashqi reklama obyektlari bo'yicha shartnomalar tuzish choralarini ko'rsin hamda ushbu shartnomalar bo'yicha yig'imlarning byudjetga to'lanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatsin.

20. "Amu-Surxon" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (T.Alimov) va viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning to'liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to'liq undirib olish choralarini ko'rsin.

Bunda, qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

21. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov), viloyat IIB Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (I.Soipov), Davlat xizmatlari agentligi viloyat boshqarmasi (A.Raxmonov) hisoblangan boj, jarima va yig'imlarni o'z vaqtida o'rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko'rib borsin.

22. Davlat Moliyaviy nazorati viloyat boshqarmasi, Xalq ta'limi, Maktabgacha ta'lim va Sog'liqni saqlash boshqarmalarining Ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

byudjet intizomiga qat'iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo'yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o'tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo'yicha kamomad va noqonuniy o'zlashtirishga yo'l qo'ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

23. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida, byudjet qonunchiligiga to'liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatishga va natijalari bo'yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishida ishtirok etsin va ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul etib belgilansin.

24. Viloyat, tumanlar va shaharlar hokimliklari tuman va shahar byudjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga yo'naltirsin.

Bunda, viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari, Yoshlar ishlari agentligi, tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida, aholiga keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas'ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro'yxati, shuningdek, qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

25. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari F.Mamanov, xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati, tuman va shahar hokimliklari, tegishli boshqarma boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan erishilgan natijalar bo'yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

26. Viloyat hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta'minlasin.

27. Mazkur qaror "Surxon tongi" va "Zarya Surxana" gazetalarida rasmiy e'lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

28. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

29. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va viloyat hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **T.BOBOLOV**
2021-yil 31-dekabr VI-41-150-8-0-K/21

Xalq deputatlari viloyat Kengashining
2021-yil 31-dekabrdagi VI-41-150-8-0-K/21-sonli
qaroriga 1-ilova

## Surxondaryo viloyatini 2022-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko'rsatkichlari hamda 2023-2024-yillarga mo'ljallari

| T/r | Ko'rsatkichlar | 2022-yil uchun prognoz | 2023-yil uchun mo'ljal | 2024-yil uchun mo'ljal |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Yalpi hududiy mahsulot (mlrd. so'm) | 28 044 | 29 867 | 31 987 |
| 2. | Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati (foizda) | 106,3 | 106,5 | 107,1 |
| 3. | Iste'mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan (foizda) | 102,4 | 102,1 | 101,1 |
| 4. | Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati (foizda) | 116,4 | 123,6 | 120,9 |
| 5. | Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (foizda) | 104,7 | 105,1 | 105,3 |
| 6. | Chakana tovar aylanmasining o'sish sur'ati (foizda) | 114,0 | 115,0 | 117,0 |

Xalq deputatlari viloyat Kengashining
2021-yil 31-dekabrdagi
VI-41-150-8-0-K/21 -sonli qaroriga 2-ilova

## Surxondaryo viloyati mahalliy byudjeti daromadlarining 2022-yilgi asosiy prognoz ko'rsatkichlari

*(ming so'mda)*

| T/R | Daromad turlari | Jami |
|---|---|---|
| I. | **Mahalliy soliq va tushumlar** | **1 112 225 000,0** |
| 1 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i | 64 504 000,0 |
| 2 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i | 590 735 800,0 |
| 3 | Aksiz solig'i | 78 586 200,0 |
| | shu jumladan: | |
| | Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i | 78 586 200,0 |
| 4 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 35 595 500,0 |
| 5 | Yuridik shaxslar yer solig'i | 55 410 000,0 |
| 6 | Davlat boji | 116 255 000,0 |
| 7 | Jarimalar | 55 105 000,0 |
| 8 | Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad | 12 394 000,0 |
| 9 | Yig'imlar | 28 487 000,0 |
| 10 | Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq | 41 223 000,0 |
| 11 | Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan tushum | 20 000 000,0 |
| 12 | Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq | 12 343 500,0 |
| 13 | Boshqa tushumlar | 1 586 000,0 |
| II. | **Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar** | **1 986 986 672,0** |
| | **Daromadlar hammasi** | **3 099 211 672,0** |

Xalq deputatlari viloyat Kengashining
2021-yil 31-dekabrdagi VI-41-150-8-0-K/21-sonli
qaroriga 3-ilova

## 2022-yil uchun viloyat byudjetidan hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari

*(ming so'mda)*

| | Xarajatlar miqdori, jami | 3 099 211 672,0 |
|---|---|---|
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 356 553 521,0 |
| | shundan: | |
| | xalq ta'limi muassasalarining keng polosali internet tarmog'iga ulanishini ta'minlash xarajatlari | 3 732 056,0 |
| | davlat tibbiyot tashkilotlari hamda viloyat aholisini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash uchun xarajatlar | 33 128 000,0 |
| | suv nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'moli uchun xarajatlar | 371 250 000,0 |
| | melioratsiya obyektlarini ta'mirlash va tiklash ishlarini amalga oshirish uchun xarajatlar | 43 550 000,0 |
| | Maxsus texnikalar xarid qilish uchun | 0,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | 362 381 501,0 |
| | Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar | 1 336 726 650,0 |
| 1. | **Xalq ta'limi boshqarmasi** | **319 451 257,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 164 769 894,0 |
| | shundan: | 0,0 |
| | xalq ta'limi muassasalarining keng polosali internet tarmog'iga ulanishini ta'minlash xarajatlari | 3 732 056,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | 154 681 363,0 |
| 2. | **Maktabgacha ta'lim boshqarmasi** | **71 877 609,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 3 646 498,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | 68 231 111,0 |
| 3. | **O'rta maxsus kasb hunar ta'lim boshqarmasi** | **955 262,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 955 262,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | 0,0 |
| 4. | **Sog'liqni saqlash boshqarmasi** | **435 264 853,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 378 764 853,0 |
| | shundan: | 0,0 |
| | davlat tibbiyot tashkilotlari hamda viloyat aholisini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash uchun xarajatlar | 33 128 000,0 |
